MAQOM XONANDALIGIDA OVOZNI YO‘LGA QO‘YISH JARAYONINI MILLIY OHANGLAR, NAMUD VA AVJLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI

Qobiljon Ayubov
Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti,
“Maqom xonandaligi” kafedrasi dotsent v.b.
DOI: 10.67620/artdsgn.690004

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maqom xonandaligi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning ovozini yo‘lga qo‘yish jarayonini milliy musiqiy ohanglar, namud va avjlar asosida tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. An’anaviy xonandalik ta’limida ovoz imkoniyatlarini rivojlantirish, kuylash nafasini shakllantirish, intonatsion aniqlikni ta’minlash va musiqiy tafakkurni takomillashtirishda maqom namunalaridan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, milliy ohanglar asosida ishlab chiqilgan legato, stakkato va vokaliz mashqlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish, namud hamda avjlarning ijrochilik texnikasini rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. Maqolada maqom xonandalarining ovozini yo‘lga qo‘yishda milliy musiqiy materiallarga asoslangan bosqichli pedagogik yondashuv taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *maqom xonandaligi, ovozni yo‘lga qo‘yish, milliy ohanglar, namud, avj, vokaliz, legato, stakkato, nafas texnikasi, ijrochilik mahorati, pedagogik samaradorlik.*

Abstract. *This article provides a scientific and methodological analysis of the pedagogical potential of organizing the voice training process for students specializing in maqom singing on the basis of national musical melodies, namuds, and avj passages. Particular attention is paid to the use of maqom musical examples in developing vocal capabilities, establishing proper singing breath control, ensuring intonational accuracy, and enhancing musical thinking in traditional singing education. The article also examines the integration of legato, staccato, and vocalise exercises based on national melodies into the educational process, as well as the role of namuds and avj passages in developing vocal performance techniques. Furthermore, a step-by-step pedagogical approach based on national musical materials is proposed for effective voice training in maqom singing.*

Keywords: *maqom singing, voice training, national melodies, namud, avj, vocalise, legato, staccato, breath control technique, vocal performance skills, pedagogical effectiveness.*

O‘zbek maqom san’ati xalqimizning asrlar davomida shakllangan boy musiqiy tafakkuri, badiiy-estetik qarashlari va ijrochilik an’analarini o‘zida mujassam etgan noyob madaniy meros hisoblanadi. Maqomlarning murakkab musiqiy tuzilishi, o‘ziga xos ohang rivoji, keng diapazonli kuy jumlalari va nozik ijro bezaklari xonandadan yuksak kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. Bunday

tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri ovozni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va uning imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanish malakasini shakllantirishdir.

Maqom xonandaligida ovoz ijrochining nafaqat musiqiy ifoda vositasi, balki asarning mazmun-mohiyatini tinglovchiga yetkazuvchi asosiy badiiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ovozni shakllantirish jarayoni xonandaning musiqiy eshitish qobiliyati, ijrochilik tafakkuri, nafasni boshqarish madaniyati va milliy ohanglarni idrok etish xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq holda olib borilishi lozim.

An’anaviy xonandalik ta’limida ustoz-shogird an’analari muhim o‘rin egallab kelgan. Mazkur ta’lim tizimida shogird ustoz ijrosini tinglash, kuzatish va takrorlash orqali maqomlarga xos ohang harakati, talaffuz, nafas olish o‘rinlari hamda badiiy ifoda usullarini o‘zlashtiradi. Biroq zamonaviy oliy musiqa ta’limida ushbu tajribalarni muayyan metodik tizimga solish, ovozni rivojlantirish mashqlarini talabalar tayyorgarlik darajasiga muvofiq bosqichlashtirish zarurati mavjud.

Shu nuqtayi nazardan, maqom xonandaligida ovozni yo‘lga qo‘yish jarayonini bevosita milliy ohanglar, namud va avjlar asosida tashkil etish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki bunday yondashuv talabaning ovoz texnikasini rivojlantirish bilan bir qatorda uning maqom ijrochiligiga xos musiqiy tafakkuri va badiiy idrokini ham shakllantirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi maqom xonandaligida ovozni yo‘lga qo‘yish jarayonida milliy musiqiy ohanglar, namud va avjlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni ta’lim jarayonida qo‘llashga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, maqom ohanglari asosida tuzilgan ovoz mashqlarining ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi vazifalari, legato va stakkato usullarining milliy musiqiy materiallar bilan bog‘liqligi, namud va avjlarning ovoz hamda musiqiy tafakkurni shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqotda musiqiy-nazariy tahlil, qiyosiy-metodik yondashuv va pedagogik umumlashtirish usullariga tayaniladi. Milliy ohanglar asosidagi mashqlarning samaradorligi nafasni boshqarish, intonatsion aniqlik, artikulyatsiya, ovoz harakatchanligi va badiiy ijro yaxlitligi kabi mezonlar orqali baholanishi taklif etiladi.

Maqom xonandaligida ovozni yo‘lga qo‘yish jarayonining o‘ziga xosligi, avvalo, uning milliy musiqiy tafakkur bilan bevosita bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. An’anaviy ijrochilikda tovushning jarangdorligi, ohangning tabiiy rivoji, talaffuzning aniqligi va musiqiy jumlalarning mazmunan yaxlitligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ovoz mashqlarini tanlashda ularning faqat texnik murakkabligiga emas, balki maqom ijrochiligi talablariga qanchalik mos kelishiga ham e’tibor qaratish zarur.

Milliy ohanglar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bir vaqtning o‘zida ikki muhim pedagogik vazifani bajaradi. Birinchidan, ular xonandaning ovoz apparati faoliyatini muvofiqlashtirish, nafasni boshqarish va intonatsion aniqlikka erishishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, talaba mashq jarayonining o‘zidayoq maqomlarga xos ohang tuzilishi, parda munosabatlari va ijrochilik uslubini o‘zlashtirib boradi.

Mazkur yondashuvning muhim jihati shundaki, texnik mashqlar musiqiy mazmundan ajralgan holda emas, balki bevosita milliy ijrochilik namunalariga tayangan holda amalga oshiriladi.


Bunday mashg‘ulotlarda dastlab sodda va qisqa musiqiy jumlalar tanlanib, keyinchalik murakkabroq ohang harakatlari, keng nafas talab etuvchi iboralar va avj qismlariga bosqichma-bosqich o‘tilishi maqsadga muvofiqdir.

Ovozni yo‘lga qo‘yish jarayonida legato va stakkato usullaridan foydalanish xonandaning nafas, artikulyatsiya va tovush hosil qilish faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Legato usuli tovushlarning o‘zaro ravon bog‘lanishini ta’minlasa, stakkato tovushlarni qisqa va aniq ajratilgan holda ijro etish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratiladi.

Maqom xonandaligida mazkur usullarni milliy ohanglar asosida o‘rgatish alohida metodik ahamiyatga ega. Jumladan, Xorazm Segoh maqomidagi «Navro‘zi Xoro» asarining zamzama qismidan olingan musiqiy jumlalar ovoz mashqlari uchun muhim material bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

1-nota misol. Xorazm Segoh maqomi — «Navro‘zi Xoro» zamzamasi asosidagi ovoz mashqi.




Ushbu mashqning dastlabki jumlasini qisqa va aniq tovushlar bilan ijro etish orqali talabalarda tovush boshlanishini nazorat qilish, kerakli pardani tez topish hamda artikulyatsion faollikni oshirish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bunda «qo», «qu», «hu», «ho», «xo» kabi bo‘g‘inlardan foydalanish tovushlarni turli artikulyatsion holatlarda ijro etish imkonini beradi.

Keyingi jumlani legato usulida kuylash esa nafasni musiqiy ibora davomida bir me’yorda taqsimlash, tovushlar o‘rtasidagi bog‘lanishni saqlash va ohangning tabiiy rivojini ta’minlashga yo‘naltiriladi.

Mazkur mashqning pedagogik ahamiyati shundaki, talaba bir musiqiy material asosida tovushni ajratib va bog‘lab ijro etish usullarini qiyosiy ravishda o‘zlashtiradi.

2-nota misol. Milliy ohang asosida stakkato va legato usullarini uyg‘unlashtiruvchi mashq.



Mazkur mashqda qisqa tovushlardan ravon musiqiy jumlalarga o‘tish jarayoniga alohida e’tibor qaratiladi. Dastlab tovushlarni aniq va ortiqcha zo‘riqishsiz ijro etish, keyinchalik esa musiqiy jumlani uzluksiz nafas asosida shakllantirish talab etiladi.


Shu tariqa milliy ohanglarga asoslangan legato va stakkato mashqlari texnik tayyorgarlik bilan bir qatorda maqom ijrochiligiga xos ohangdorlikni shakllantirish uchun ham xizmat qiladi.

Maqom xonandalarini tayyorlashda milliy musiqiy materiallarga asoslangan vokalizlardan foydalanish ovozni rivojlantirishning qo‘shimcha metodik vositasi sifatida qaralishi mumkin.

Vokalizlarning muhim xususiyati shundaki, ular xonandaga she’riy matnning mazmuniy va talaffuz bilan bog‘liq murakkabliklaridan nisbatan xoli holda tovush sifati, nafas, intonatsiya va ovoz harakatchanligiga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Biroq maqom xonandaligida vokalizlarning musiqiy tuzilishi milliy ohang xususiyatlariga mos bo‘lishi zarur. Shu sababli mashqlarni maqomlarga xos parda munosabatlari, ohang harakati va musiqiy jumlalar asosida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

3-nota misol. Milliy ohang asosida unli tovushlarni ravon ijro etishga mo‘ljallangan vokaliz.



Ushbu vokalizni ijro etishda asosiy e’tibor unli tovushlarning barqaror jaranglashi, musiqiy jumlalar orasidagi nafas almashinuvi va tovushlar o‘rtasidagi ravon bog‘lanishga qaratiladi.

Mashqni talabaning qulay ovoz diapazonida boshlash, keyinchalik ovoz imkoniyatlariga muvofiq murakkablashtirish tavsiya etiladi. Bunda tovush balandligini oshirishning o‘zi asosiy maqsadga aylanmasligi, aksincha, ovozning erkinligi va sifatiga ustuvor ahamiyat berilishi lozim.


Milliy vokalizlardan muntazam va me’yorida foydalanish orqali talabada kuylash nafasini boshqarish, tovushlarni intonatsion jihatdan aniq ijro etish va murakkab musiqiy harakatlarga tayyorlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Maqom xonandaligida namudlar muhim musiqiy-badiiy vazifani bajaradi. Ular maqom asarlarining ohang rivojida muayyan o‘rin egallashi bilan birga, xonandaning musiqiy xotirasi, intonatsion tafakkuri va ijrochilik mahoratini shakllantirish uchun ham boy imkoniyatlarga ega.

Namudlardan ovoz mashqi sifatida foydalanishning o‘ziga xos jihati shundaki, talaba muayyan musiqiy tuzilmani o‘zlashtirish davomida ovoz texnikasiga oid bir nechta vazifani birgalikda bajaradi.

Jumladan, namud tarkibidagi qisqa ohang harakatlari artikulyatsiya va intonatsion aniqlikni rivojlantirishga, keng musiqiy jumlalar esa nafasni boshqarish hamda tovushning barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.

4-nota misol. Milliy ohang asosidagi artikulyatsion va intonatsion mashq.



Mazkur mashqning dastlabki qismida takrorlanuvchi bo‘g‘inlar orqali tovushlarning aniq talaffuzi va ritmik barqarorligiga erishish nazarda tutiladi. Keyingi musiqiy jumlalarda esa tovushlar o‘rtasidagi bog‘lanish, nafasning davomiyligi va ohang harakatining yaxlitligi ustida ishlash mumkin.


Namudlarni o‘rganish jarayonida talabalarning e’tiborini faqat nota matnini to‘g‘ri ijro etishga qaratish yetarli emas. Ularning musiqiy tuzilishi, maqom tarkibidagi vazifasi, avj bilan bog‘liqligi va turli ijrochilik talqinlaridagi xususiyatlarini ham tushuntirish zarur.

Bu jarayon xonandada mustaqil musiqiy fikrlash, eshitilgan ohangni tahlil qilish va ijro davomida badiiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Maqom xonandaligida namudlardan pedagogik maqsadda foydalanish imkoniyatlarini «Muhayyari Chorgoh» namudi misolida ham ko‘rib chiqish mumkin.

Mazkur namudning musiqiy tuzilishi, ohang harakatlari va jumlalararo bog‘lanishlari talabaning nafasni boshqarish, intonatsion aniqlik va badiiy ifoda ustida ishlashi uchun muhim material vazifasini bajaradi.

5-nota misol. «Muhayyari Chorgoh» namudi (Sarahbor).



Ushbu namudni o‘rganish jarayonini bir necha metodik bosqichda tashkil etish mumkin.

Dastlab namudning umumiy ohang tuzilishi, musiqiy jumlalari va nafas olish o‘rinlari aniqlanadi. Keyingi bosqichda murakkab intonatsion harakatlar alohida ajratilib, talabaning ovoz imkoniyatlariga muvofiq mashq qilinadi.

Shundan so‘ng musiqiy jumlalarni o‘zaro bog‘lagan holda ijro etish, tovushlarning ravonligini saqlash va badiiy ifodani shakllantirish ustida ishlanadi.

Yakuniy bosqichda esa namud yaxlit musiqiy tuzilma sifatida ijro etilib, uning maqom tarkibidagi vazifasi va badiiy mazmuniga e’tibor qaratiladi.

Mazkur yondashuv orqali talaba namudni faqat yodlab ijro etish bilan cheklanmay, uning musiqiy tuzilishi va ijrochilik imkoniyatlarini ongli ravishda o‘zlashtiradi.

Maqom asarlarining avj qismlari xonandadan yuqori darajadagi texnik tayyorgarlik, keng musiqiy tafakkur va badiiy ifoda mahoratini talab etadi. Avjlarni mukammal ijro etish uchun ovozning yuqori pardalardagi barqarorligi, nafasni to‘g‘ri taqsimlash va musiqiy jumlalarning mantiqiy rivojini ta’minlash muhimdir.

Avjlar ustida ishlash jarayonida talabaning individual ovoz imkoniyatlarini hisobga olish asosiy metodik shartlardan biri hisoblanadi. Chunki yuqori pardalarga tayyorgarliksiz yoki ortiqcha zo‘riqish bilan intilish ovoz apparatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli avjlarni o‘rgatish dastlab ularning nisbatan sodda ohang bo‘laklarini o‘zlashtirishdan boshlanib, keyinchalik murakkab musiqiy jumlalarga o‘tish asosida tashkil etilishi lozim.

Avjlarni o‘rganishda talabalar tovush balandligini egallash bilan bir qatorda, uning badiiy vazifasini ham anglab borishlari zarur. Zero, maqom ijrochiligida avj faqat yuqori pardalarda kuylash jarayoni emas, balki asarning musiqiy-badiiy rivojidagi muhim ifoda bosqichidir.

Milliy ohanglar, namud va avjlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning pedagogik samaradorligini aniqlashda bir nechta mezonlarga tayanish mumkin.

Birinchi mezon – nafasni boshqarish ko‘nikmasidir. Bunda talabaning musiqiy jumlalarni yaxlit ijro etishi, nafasni ibora davomida maqsadga muvofiq taqsimlashi va tovush barqarorligini saqlashi baholanadi.

Ikkinchi mezon – intonatsion aniqlik. Talabaning maqom pardalarini to‘g‘ri his etishi, tovushlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniq ifodalashi va murakkab ohang harakatlarini xatosiz ijro etishiga e’tibor qaratiladi.

Uchinchi mezon – ovozning texnik erkinligi. Bunda turli balandlikdagi tovushlarni ortiqcha zo‘riqishsiz ijro etish, legato va stakkato usullaridan o‘rinli foydalanish hamda artikulyatsion aniqlikni ta’minlash muhim hisoblanadi.

To‘rtinchi mezon – musiqiy tafakkur va badiiy talqin. Talabaning namud va avjlarning musiqiy vazifasini tushunishi, asar tuzilishini anglagan holda ijro etishi va ustozlar talqinlarini qiyosiy tahlil qila olishi nazarda tutiladi.

Mazkur mezonlar asosida talabalar tayyorgarligining boshlang‘ich va keyingi bosqichlarini qiyosiy baholash, milliy mashqlar tizimining amaliy natijadorligini aniqlash mumkin.

Biroq bunday mashqlar samaradorligi haqida qat’iy xulosa chiqarish uchun pedagogik tajriba, muntazam kuzatuv va baholash natijalariga asoslanish zarur.

Xulosa. Maqom xonandaligida ovozni yo‘lga qo‘yish jarayonini milliy ohanglar, namud va avjlar asosida tashkil etish an’anaviy ijrochilik ta’limini takomillashtirishning muhim metodik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bunday yondashuvning asosiy afzalligi ovoz texnikasi va musiqiy-badiiy tafakkurni o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish imkoniyatini yaratishidadir. Talaba ovoz mashqlarini bajarish jarayonida nafaqat nafasni boshqarish, intonatsion aniqlik va artikulyatsion erkinlikni o‘zlashtiradi, balki maqomlarga xos ohang tuzilishi va ijrochilik an’analarini ham chuqurroq anglab boradi.

Milliy musiqiy materiallarga asoslangan legato, stakkato va vokaliz mashqlari ovozni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi yordamchi metodik vositalar sifatida ahamiyatlidir. Namud va avjlar esa texnik ko‘nikmalar bilan bir qatorda musiqiy xotira, ijodiy tafakkur va badiiy talqin imkoniyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi mumkin.

Shuningdek, mashg‘ulotlarni talabaning individual ovoz xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi va fiziologik imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar asosida maqom xonandaligida ovozni yo‘lga qo‘yish uchun milliy ohanglarga tayangan, sodda mashqlardan murakkab namud va avjlarga izchil o‘tishni nazarda tutuvchi bosqichli metodik tizimni shakllantirish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelish mumkin.

Ushbu yondashuvning amaliy samaradorligini kelgusida maxsus pedagogik tajribalar asosida o‘rganish, natijalarni qiyosiy tahlil qilish va maqom xonandaligi ta’limiga mo‘ljallangan milliy ovoz mashqlari majmuasini ishlab chiqish muhim ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayubov Q. Ovozni yo‘lga qo‘yish. O‘quv qo‘llanma – Toshkent: “Miron art desing” nashiriyoti, 2025.
2. Ayubov Q. Maqom xonandalari ovozini yo‘lga qo‘yishning ba’zi muhim jihatlari. “Qoraqalpoq milliy musiqa san’atida zamonaviy interpretatsiya masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. Nukus, 14-noyabr, 2024-yil. B.142-147.
3. Ayubov Q. An’anaviy xonandalikda ovoz yurgizish va ovoz sozlash mashqlarining metodik asoslari. Filologiya va pedagogika jurnali, 2026-yil. 12 (31)-son. B.114-116.